

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA IJTIMOY O'YINLAR ORQALI BOLALAR MULOQOTINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY METODIKASI

Alimova Gulchehra Ikromali qizi

FarDU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy o'yinlarni tashkil etishning amaliy jihatlari, tarbiyachining roli va metodik talablari, turli yosh guruhlari (3-4, 4-5, 5-6, 6-7 yosh) uchun muloqotni rivojlantiruvchi o'yinlar tizimi, shuningdek ijtimoiy o'yinlar samaradorligini baholash mezonlari batafsil yoritilgan. Maqolada rolli, didaktik, stol-bosma, og'zaki-so'zli, qoidalı-harakatli va milliy o'yinlarning amaliy namunalari keltirilgan. Maqola amaliyotchi pedagoglar, tarbiyachilar va maktabgacha ta'lim metodislari uchun metodik qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy o'yin, muloqotni rivojlantirish, tarbiyachi roli, metodik talablar, yosh guruhlari, rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar, milliy harakatli o'yinlar, samaradorlikni baholash, "Ilk qadam" dasturi.*

Kirish.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning nutqini rivojlantirish, ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiy o'yinlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy o'yinlar bolalarning muloqotga kirishishi, fikrini erkin ifodalashi, tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi va ijtimoiy tajriba orttirishida muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayonda tarbiyachining o'rni beqiyos bo'lib, u nafaqat o'yin tashkilotchisi, balki yo'naltiruvchi, kuzatuvchi va rivojlantiruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining "Ta'lim jarayonini tashkil etish" bo'limida qayd etilganidek: "O'yin, savol-javob, suhbat, kuzatish, tajriba o'tkazish va muammoli vaziyatlar yaratish orqali bolalarning faolligi hamda mustaqil fikrlashi qo'llab-quvvatlanadi".

Ijtimoiy o'yinlarni tashkil etishda tarbiyachi metodik talablarni to'liq hisobga olishi zarur. Avvalo, o'yin aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Har bir o'yin orqali bolalarda ma'lum nutqiy ko'nikmalar – so'z boyligini oshirish, gap tuzish, fikrni izchil bayon etish kabi kompetensiyalar shakllantiriladi. Shu bilan birga, o'yin jarayoni tizimli va izchil tashkil etilishi, ya'ni osondan murakkabga tamoyili asosida olib borilishi lozim. Metodik jihatdan yana bir muhim talab – bu o'yin jarayonida bolalarning erkinligini ta'minlashdir. Tarbiyachi o'yinni boshqaradi, ammo bolalarning tashabbusini cheklamaydi. Aksincha, ularni mustaqil fikrlashga, o'z rollarini ijodiy bajarishga rag'batlantiradi.

Tarbiyachining asosiy vazifalaridan biri ijtimoiy o'yinlar uchun qulay pedagogik muhit yaratishdir. Bunda u bolalarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda o'yin mazmunini tanlaydi va tashkil etadi. Masalan,

kichik yoshdagi bolalar uchun sodda rolli o'yinlar, katta yoshdagilar uchun esa murakkab syujetli o'yinlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi o'yin jarayonida bolalarni faol ishtirok etishga undaydi, ularning nutqiy faolligini oshirish uchun savollar beradi, dialog va monolog nutqini rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Ijtimoiy o'yinlarni samarali tashkil etish jarayonida tarbiyachining pedagogik mahorati nafaqat o'yin mazmunini to'g'ri tanlashda, balki uni bosqichma-bosqich amalga oshirishda ham namoyon bo'ladi. Tayyorgarlik bosqichida tarbiyachi o'yin uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, o'yin mavzusini aniqlaydi, kerakli jihozlar va didaktik materiallarni tayyorlaydi, bolalarga o'yin mazmunini tushuntiradi. Asosiy o'yin jarayonida tarbiyachi ko'proq kuzatuvchi va yo'naltiruvchi rolini bajaradi, bolalarning o'zaro muloqotini rag'batlantiradi, zarur hollarda o'yinga nozik tarzda aralashib, nutqiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi savollar beradi. Yakuniy bosqichda esa o'yin natijalari muhokama qilinadi, tarbiyachi bolalar bilan birgalikda o'yin jarayonini tahlil qiladi, ijobiy jihatlarni alohida ta'kidlaydi va mavjud kamchiliklarni yumshoq tarzda ko'rsatadi.

Bolaning o'yin faoliyati va muloqot qobiliyatlari yoshiga qarab bosqichma-bosqich rivojlanadi. Kichik guruh bolalarida (3-4 yosh) o'yin faoliyati asosan "yonma-yon" o'yin shaklida bo'ladi. Bolalar bir-birlarining o'yiniga qiziqish bilan qaraydilar, lekin hali birgalikdagi o'yin harakatlari shakllanmagan. Muloqot asosan kattalar bilan bo'lib, tengdoshlari bilan muloqot vaziyatli va qisqa muddatli hisoblanadi. O'rta guruh bolalarida (4-5 yosh) syujetli-rolli o'yinlar rivojlana boshlaydi. Bolalar o'zlariga rol qabul qiladilar va shu rolga xos harakatlarni bajarishga harakat qiladilar. Tengdoshlari bilan muloqotga ehtiyoj kuchayadi, muloqot o'yin jarayonida, rollarni taqsimlash va o'yin qoidalarini kelishishda namoyon bo'ladi. Katta guruh va maktabga tayyorlov guruhi bolalarida (5-7 yosh) o'yinlarning mazmuni boyiydi, syujetlar murakkablashadi, rollar va qoidalar aniq belgilanadi. Muloqot vaziyatdan tashqari shaxsiy tus oladi, bolalar o'zlarining his-tuyg'ulari, istaklari, o'y-xayollari haqida gapirishni boshlaydilar.

Turli yosh guruhlarida muloqotni rivojlantiruvchi o'yinlar tizimi quyidagicha tavsiya etiladi:

3-4 yosh (kichik guruh) uchun o'yinlar: "Qo'g'irchoq bilan suhbat" – bola qo'g'irchoqni "bola", o'zini esa "ona" yoki "tarbiyachi" rolida tasavvur qiladi, u bilan suhbatlashadi, ovqatlantiradi, kiyintiradi; "Qurib-yasaymiz" – turli konstruktorlardan (lego, kubiklar) uy, ko'prik yoki boshqa shakllarni yasash; "Sirli oshxona" – o'yinchoq idishlar yordamida ovqat tayyorlash jarayonini taqlid qilish; "Kimning ovozi?" – ranglarni ajratish va nomlash; "To'pni quvla!", "To'pni ushlab ol!" kabi harakatli o'yinlar; milliy o'yinlardan "Barmoqqa-barmoq", "G'oz-g'oz", "Poezd", "Achom-achom".

4-5 yosh (o'rta guruh) uchun o'yinlar: "Do'koncha", "Shifokor", "Oila" kabi syujetli-rolli o'yinlar; "Loto", "Domino", "Ranglarni va shakllarni tanlash" kabi stol-bosma didaktik o'yinlar; "Sehrli qopchi" – predmetlarni paypaslab topish va ularni tasvirlash; "Qo'g'irchoqni tayyorla" – kiyimlarni tanlash va kiygizish; milliy o'yinlardan "Ot o'yin", "Ko'z boylagich", "Chori chamber", "Chitti gul".

5-6 yosh (katta guruh) uchun o‘yinlar: “Kim tez topadi?”, “So‘z zanjiri”, “Kim ko‘proq so‘z topadi?” kabi og‘zaki-so‘zli o‘yinlar; “Sonlar va hisoblash” kabi matematik o‘yinlar; “Yaxshi-yomon” o‘yini – biror hodisa yoki predmetning ijobiy va salbiy tomonlarini sanash; “Mo‘jizalar maydoni” – ikki xil predmetni birlashtirib yangi mahsulot yaratish; “Agar shunday bo‘lsa...” o‘yinlari (masalan, “Agar odamlar uchib yursa, hayot qanday bo‘lardi?”); milliy harakatli o‘yinlardan “Chavandozlar”, “Doiraga tort”, “Do‘ppi yashirma”, “Sapalak”, “Besh tosh”, “Oq terakmi, ko‘k terak”.

6-7 yosh (maktabga tayyorlov guruhi) uchun o‘yinlar: Murakkab syujetli rolli o‘yinlar (“Maktab”, “Kutubxona”, “Sayohat”); loyiha asosidagi ijtimoiy o‘yinlar; “Ziddiyatlarni yechish” o‘yinlari (masalan, “Buyum mustahkam, lekin yengil bo‘lishi kerak”); “Assotsiatsiyalar zanjiri” – bir so‘z yoki obrazdan boshlanib, undan kelib chiqadigan bog‘lanishlar ketma-ketligini hosil qilish; “Ro‘l almashtirish” o‘yinlari (“Agar sen daraxt bo‘lsang, nimalarni his qilarding?”); “Teskari fikrlash” usuli.

Ijtimoiy o‘yinlarni tashkil etishda milliy va madaniy qadriyatlardan foydalanish muhim metodik talab hisoblanadi. O‘zbek xalq o‘yinlari, milliy urf-odatlar asosida tashkil etilgan o‘yinlar bolalarda nafaqat nutqni, balki milliy ong va qadriyatlarni ham shakllantiradi. Masalan, mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi tushunchalar o‘yin orqali tabiiy ravishda singdiriladi. Tarbiyachining nutqi ham bolalar uchun asosiy namuna hisoblanadi. Shu sababli u o‘z nutqining tozaligi, aniqligi va ifodaliligiga alohida e‘tibor qaratishi zarur.

Ijtimoiy o‘yinlar samaradorligini baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi: bolalarning muloqotga kirishish faolligi; nutqiy javoblarning ravonligi va boyligi; dialogik nutqning rivojlanganlik darajasi; suhbatdoshni tinglash va tushunish qobiliyati; o‘z navbatida gapirish qoidalariga amal qilish; odob-axloq qoidalarini qo‘llay olish; ijtimoiy rollarni o‘ynashda erkinlik va ijodkorlik; jamoada hamkorlik qilish ko‘nikmasi. Tarbiyachi kuzatuv metodi orqali bolalarning faolligi, hamkorlik darajasi va muammolarni hal qilish yondashuvini doimiy ravishda tahlil qilib borishi kerak.

Amaliyotda kuzatilishicha, ijtimoiy o‘yinlarni muntazam va tizimli tashkil etish bolalarda quyidagi natijalarni beradi: so‘z boyligi kengayadi, gap tuzish qobiliyati rivojlanadi, muloqotga kirishish osonlashadi, tinglash va tushunish ko‘nikmalari shakllanadi, nutqiy faollik ortadi, ijtimoiy moslashuv yaxshilanadi, jamoada ishlash va o‘z fikrini himoya qilish kabi kompetensiyalar rivojlanadi. Shuningdek, bolalarda muloqot madaniyati, o‘zaro hurmat va hamkorlik hissi mustahkamlanadi.

Xulosa

Ijtimoiy o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Tarbiyachining metodik yondashuvi uning samaradorligini belgilovchi eng muhim omildir. Tarbiyachi o‘yin mazmunini tanlash, uni yosh va individual xususiyatlarga moslashtirish, bolalarni faol ishtirok etishga rag‘batlantirish, hamda ularning nutqiy xatolarini muloyim va pedagogik jihatdan to‘g‘ri tuzatish orqali bolalarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Faqat shu

sharoitda ijtimoiy o‘yinlar bolalarning nutqi, tafakkuri va ijtimoiy ko‘nikmalarini kompleks ravishda rivojlantiruvchi samarali vositaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-dekabrda PQ-4312-son Qarori. “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-iyuldagi PQ-4884-son Qarori. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularni zamonaviy talablar asosida qayta jihozlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
4. Vygotskiy, L.S. (2004). “Imagination and Creativity in Childhood”. Journal of Russian and East European Psychology, 42(1), 7-97.
5. Elkonin, D.B. (1999). O‘yin psixologiyasi. Moskva: VLADOS.
6. Usova, A.P. (1976). Bolalar bog‘chasida o‘yin. Moskva: Prosveshcheniye.
7. Azamov, A. (2006). O‘zbek xalq o‘yinlari. Toshkent: Sharp.
8. G‘ulomova, M. (2019). Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Noshir.
9. Kasimova, K. (2020). Bolalar tafakkurini rivojlantirish o‘yinlari. Toshkent: Yangi asr avlodi.
10. To‘ychiyeva, S. (2022). Bolalarda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston.